

KATTA O'YIN VA UNING BUGUNGI MARKAZIY OSIYODAGI AKS SADOSI

Jaxongir Rustamaliyev Fakhriddin o'g'li
student of Kimyo international university in
Tashkent Namangan branch
E-mail: jaxongirrustamaliyev@gmail.com
Tel: +998 90 554 9003

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Katta O‘yin” tushunchasining tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va bugungi Markaziy Osiyo geosiyosiy makonidagi zamonaviy aks sadosi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. XIX asrda Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasida boshlangan strategik raqobat bugun ham ko‘p tomonlama shaklda davom etayotgani, raqobatda ishtirok etayotgan global kuchlarning (AQSH, Xitoy, Turkiya va boshqalar) soni ortgani ta’kidlanadi. Maqolada mintaqaviy xavfsizlik, energetika resurslari, transport infratuzilmasi va siyosiy ta’sir uchun kechayotgan kurashlar zamiridagi real manfaatlar va xavflar o‘rganiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Markaziy Osiyo bugungi “Katta O‘yin”da endi faqat passiv maydon emas, balki faol geosiyosiy subyekt sifatida maydonga chiqmoqda.

Kalit so‘zlar: Katta O‘yin, Markaziy Osiyo, geosiyosiy raqobat, Rossiya, Xitoy, AQSH, strategiya, mintaqaviy xavfsizlik

THE THEORY OF THE GREAT GAME AND ITS CONTEMPORARY ECHO IN CENTRAL ASIA

Abstract: This article provides a scientific analysis of the theory of the “Great Game,” tracing its historical origins and exploring its modern manifestations in the geopolitical landscape of Central Asia. While the strategic rivalry between Russia and Britain began in the 19th century, it has now evolved into a complex, multi-actor competition involving global powers such as the United States, China, and Turkey. The paper examines the contemporary struggles over energy resources, regional security, and influence, emphasizing that Central Asia has transitioned from a passive arena of external interests to an active geopolitical player shaping regional developments.

Keywords: Great Game, Central Asia, geopolitical rivalry, Russia, China, USA, strategy, regional security

ТЕОРИЯ «БОЛЬШОЙ ИГРЫ» И ЕЁ СОВРЕМЕННОЕ ОТРАЖЕНИЕ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: В статье проводится научный анализ теории «Большой игры», её исторического становления и современного проявления в геополитическом пространстве Центральной Азии. Отмечается, что стратегическое соперничество между Россией и Британией, начавшееся в XIX веке, сегодня продолжается в более сложной, многосторонней форме. Рассматриваются интересы таких держав, как США, Китай, Турция и других, а также борьба за энергетические ресурсы, транспортные коридоры и влияние на региональную безопасность. В результате анализа делается вывод, что страны Центральной Азии уже не являются пассивным объектом, а выступают активными субъектами геополитических процессов.

Ключевые слова: Большая игра, Центральная Азия, геополитика, Россия, Китай, США, стратегия, региональная безопасность

KIRISH

Geosiyosiy maydonning muhim qirralaridan biri bu tarixiy raqobat va manfaatlar to'qnashuvi asosida shakllangan siyosiy strategiyalar bo'lib, bu jihatlar ayniqsa Markaziy Osiyo kabi o'ziga xos joylashuvga ega hududlarda alohida ahamiyat kasb etadi. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo xalqaro siyosiy kurashlar markaziga aylandi. Bu jarayon tarixda "Katta O'yin" nomi bilan mashhur bo'lgan strategik raqobatning boshlanishi edi. Bu atama ilk bor ingliz razvedkasi xodimi Artur Konnoli tomonidan Britaniya va Rossiya imperiyalari o'rtasidagi Markaziy Osiyo ustidan nazorat o'rnatish uchun olib borilgan raqobatga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik mashhur ingliz yozuvchisi Redyard Kipling bu atamani adabiyotga singdirgan holda yanada ommalashtirdi. Mazkur geosiyosiy o'yin o'zining ilk davrida asosan ikki yirik imperiya — Rossiya va Britaniya o'rtasidagi bilvosita qarama-qarshilik sifatida yuzaga chiqqan bo'lsa-da, keyingi davrlarda bu o'yin yanada murakkab va ko'p tomonli tus oldi.

Markaziy Osiyo strategik joylashuvi, tabiiy boyliklarga boyligi, madaniy va siyosiy jihatdan muhim chorrahada joylashgani sababli tarix davomida yirik davlatlar e'tiboridan chetda qolmadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu mintaqada Rossiya imperiyasining bosqinchilik harakatlari va Britaniya imperiyasining Hindistondagi manfaatlarini himoya qilish uchun olib borgan tashqi siyosatining chorrahasi bo'ldi. Har ikki tomon mintaqada bevosita qurolli to'qnashuvga kirishmasdan, diplomatik, razvedkaviy va harbiy tayyorgarliklar orqali raqobat olib bordi. Mazkur jarayon Afg'oniston hududida bir necha marotaba yuz bergan ingliz-afg'on urushlari, Rossiyaning Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarni bosib olishi bilan yanada keskinlashdi. 1907-yilda imzolangan Angliya-Rossiya Konvensiyasi bilan birinchi davr yakunlangan bo'lsa-da, bu raqobatning yangi bosqichlari keyingi tarixiy voqealarda o'z aksini topdi.

XX asrning birinchi yarmi Sovet Ittifoqi va uning Markaziy Osiyodagi ta'siri bilan davom etdi. Uchinchi ingliz-afg'on urushi, Afg'onistonning mustaqillikka erishishi va Sovet–Afg'on do'stlik shartnomasi ushbu hududdagi kuchlar muvozanatini tubdan o'zgartirdi. Ikkinchi jahon urushi ortidan esa Buyuk Britaniya o'rnini Qo'shma Shtatlar egallab, “Katta O‘yin”ning ikkinchi bosqichiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa 1979–1989 yillarda Sovet Ittifoqining Afg'onistonga yurishi va AQSh tomonidan qo'llab-quvvatlangan kuchlar o'rtasidagi kurash bu raqobatning eng keskin bosqichiga aylandi. Sovet Ittifoqining qulashidan so'ng esa Markaziy Osiyo yana yangi geosiyosiy sahnaga aylandi. Endi bu o'yinda nafaqat Rossiya va AQSh, balki Xitoy, Turkiya, Eron, Hindiston va boshqa qudratli davlatlar ham faol ishtirok eta boshladi.

XXI asrga kelib, Markaziy Osiyo faqat raqobat maydoni emas, balki global xavfsizlik, iqtisodiy manfaatlar va ideologik kurashlar kesishgan geostrategik markazga aylandi. Ayniqsa, 2001-yil 11-sentabrdagi teraktlardan so'ng mintaqa xalqaro terrorizmga qarshi kurashning ilg'or frontiga aylandi. NATO kuchlarining mintaqadagi mavjudligi, AQSh va Rossiyaning Afg'onistondagi faoliyati, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining roli — bularning barchasi “Katta O‘yin”ning yangi bosqichda davom etayotganidan dalolat beradi. Bu davrni ba'zilar “non-zero-sum game”, ya'ni g'olib va mag'lub tushunchalariga tayanmaydigan yangi o'zaro manfaatlar doirasida olib borilayotgan raqobat davri deb ataydi. Biroq haqiqat shundaki, Markaziy Osiyo hanuz strategik manfaatlar to'qnashuvi markazida qolmoqda va mintaqaning har bir resursi, transport yo'lagi yoki siyosiy qarori kuchlar muvozanatini o'zgartiruvchi omil sifatida qaralmoqda.

Ushbu maqola aynan “Katta O‘yin” nazariyasining shakllanishi, tarixiy bosqichlari va ayniqsa uning bugungi zamonaviy Markaziy Osiyodagi aks sadosini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Shu maqsadda, maqolada muhim geosiyosiy kuchlarning mintaqadagi strategiyalari, ularning iqtisodiy, harbiy va madaniy ta'siri, shuningdek, yangi bosqichda yuzaga kelayotgan tahdid va imkoniyatlar tadqiq qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari Markaziy Osiyodagi davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun muhim strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Katta O‘yin” nazariyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tarixiy, siyosiy va geostrategik kontekstlarda keng qamrovli tahlilni talab qiladi. Ushbu konsepsiyaning nazariy asoslari XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi tarixiy manbalar, mustamlakachilik siyosati bo'yicha yozilgan fundamental asarlar hamda zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyalari orqali aniqlashtiriladi. Mazkur tadqiqotning adabiy manba asoslari ham tarixiy hujjatlar, siyosiy tahlillar, mintaqaviy xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar va monografiyalar asosida shakllantirilgan.

“Katta O‘yin” tushunchasi dastlab ingliz razvedkasi ofitseri Artur Konnoli tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u Britaniya va Rossiya imperiyalari o‘rtasidagi geostrategik kurashni tavsiflash uchun ishlatilgan [1]. Ushbu atama o‘zining siyosiy-psixologik va mafkuraviy talqinini Redyard Kiplingning asarlari orqali keng ommaga yetib borgan. Tarixshunos David Fromkin o‘zining “A Peace to End All Peace” asarida “Katta O‘yin”ning Yaqin Sharqdagi geosiyosiy oqibatlarini batafsil tahlil qilib, uni XIX asrda boshlangan va bugungi kungacha davom etayotgan global raqobatning uzviy qismi sifatida ko‘rsatadi [2].

Markaziy Osiyoning strategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va transport yo‘llaridagi o‘rni tufayli uning xalqaro siyosatdagi o‘rni muttasil ravishda ko‘plab adib va siyosatshunoslar e‘tiborida bo‘lib kelgan. Robert D. Kaplan o‘zining “The Revenge of Geography” kitobida Markaziy Osiyoni “qalbiy yarim orol” (pivot zone) deb atab, u yerda olib borilayotgan raqobatni zamonaviy “Katta O‘yin”ning davomi sifatida baholaydi [3]. Bu fikrlarni Brzezinski ham “The Grand Chessboard” nomli asarida qo‘llab-quvvatlab, mintaqani geosiyosiy shaxmat maydoniga qiyoslaydi va bu yerda nazoratni qo‘lga kiritgan davlat global ta’sirga ega bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi [4].

Yaqinda chop etilgan ilmiy maqolalarda “Katta O‘yin” faqat ikki kuch o‘rtasidagi ziddiyat emas, balki ko‘p tomonlama qarama-qarshiliklar, jumladan, AQSh, Xitoy, Turkiya, Eron va boshqa davlatlar ishtirokida olib borilayotgan murakkab geostrategik kurash sifatida talqin qilinmoqda [5]. Jennifer Brick Murtazashvili va Muhammad Shoaib Haider kabi olimlar mintaqada AQSh va NATO kuchlarining mavjudligini yangi bosqich deb talqin qiladi, ayniqsa 2001-yildan keyingi antiterroristik operatsiyalar mintaqaning global siyosatdagi tutgan o‘rnini tubdan o‘zgartirganini ta’kidlaydilar [6]. Shu bilan birga, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SCO) va Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (CSTO) doirasida Rossiyaning mintaqadagi harbiy va siyosiy faolligi kuchaygani haqida ko‘plab tadqiqotlar mavjud [7].

Metodologik jihatdan, ushbu tadqiqot tarixiy-analitik yondashuv va geosiyosiy tahlil metodlariga asoslanadi. Avvalo, “Katta O‘yin” konsepsiyasining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi xronologik tartibda tahlil qilindi. Bu bosqichda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yozilgan tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, harbiy ekspeditsiyalar haqidagi yozuvlar asosiy daliliy asos sifatida xizmat qildi [1], [2]. Keyinchalik, zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasi – ayniqsa realizm va neorealizm yondashuvlari asosida mintaqadagi geostrategik kurashning sabablari va oqibatlari tahlil qilindi [4], [5]. Bundan tashqari, Markaziy Osiyodagi xalqaro harbiy va iqtisodiy ishtirokning kuchayishi, ayniqsa Xitoyning “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi orqali mintaqadagi ta’sirining ortib borayotgani kontekstida iqtisodiy-geosiyosiy yondashuv ham qo‘llanildi [8]. Shuningdek, zamonaviy raqamli xavfsizlik,

transport infratuzilmasi va energetika sohalaridagi loyihalarning geoiqtisodiy ta'siri tahlil qilindi. Bu borada xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, OSCE, NATO) tomonidan e'lon qilingan statistik hisobotlar, shuningdek, mintaqaviy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalardan foydalanildi [6], [9]. Tadqiqotda sifatli kontent tahlili, o'zgaruvchan siyosiy strategiyalarning o'rganilishi va tarixiy jarayonlarning zamonaviy aks sadosini o'rganish asosiy metod sifatida tanlandi. Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Katta O'yin" konsepsiyasi tarixiy-geosiyosiy jarayonlarning uzviy qismiga aylanib ulgurgan. U faqat tarixiy mojarolar bilan cheklanib qolmay, hozirgi kunda ham Markaziy Osiyo davlatlari mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmoqda. Shu bois bu nazariya va uning evolyutsiyasini chuqur tahlil qilish zamonaviy mintaqaviy siyosatni anglashda alohida ahamiyat kasb etadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

"Katta O'yin" konsepsiyasining Markaziy Osiyodagi tarixiy ildizlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lsa-da, uning bugungi kunda ham faol ravishda davom etayotganini tahlil natijalari aniq ko'rsatmoqda. Geosiyosiy jarayonlarni tarixiy evolyutsiya asosida o'rganish shuni ko'rsatadiki, mazkur nazariya mintaqaviy siyosiy iqlimni tushunishda hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. XIX asrda ikki imperiya – Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi bilvosita raqobat shaklida boshlangan ushbu "katta o'yin", zamon o'tishi bilan o'z shaklini o'zgartirib, lekin mohiyatini saqlagan holda, XXI asrga kelib global o'lchamdagi ko'p tomonlama kuchlar o'rtasidagi raqobatga aylangan. Tarixan "Katta O'yin"da asosiy maqsad Hindistonga yo'l ochish va Markaziy Osiyo ustidan nazorat o'rnatish bo'lgan bo'lsa, bugungi global davrda bu hududning ahamiyati energiya resurslari, infratuzilma loyihalari, transport yo'llari va xavfsizlik masalalari bilan bog'liq holga kelgan. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri shuki, tarixda bo'lgani kabi hozirda ham Markaziy Osiyo geosiyosiy kuchlar o'rtasidagi kurashning markaziy sahnasiga aylangan. Bu raqobat faqat harbiy yoki siyosiy emas, balki iqtisodiy, madaniy, ideologik va texnologik sohalarda ham olib borilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Sovet Ittifoqi qulaganidan keyin paydo bo'lgan geosiyosiy vakuum mintaqada yangi kuchlar – AQSh, Xitoy, Turkiya, Eron va boshqa davlatlar uchun katta imkoniyatlar maydonini yaratdi. AQShning 2001-yildan boshlab mintaqada harbiy mavjudlikni kuchaytirishi va NATO kuchlarining Afg'onistonga kirib kelishi yangi "Katta O'yin" bosqichini boshlab berdi. Shu bilan birga, bu davrda Rossiya o'zining sobiq mustamlaka hududi sifatida ko'rayotgan Markaziy Osiyoga bo'lgan siyosatini qayta ko'rib chiqdi va ta'sirini tiklash uchun harbiy, iqtisodiy va axborot vositalari orqali faol siyosat yurita boshladi. Ayniqsa Tojikiston va Qirg'izistonda Rossiyaning harbiy bazalari tashkil etilishi, Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkilotining qayta faollashuvi, "Yagona bojxona ittifoqi" kabi

tashabbuslarning ilgari surilishi Rossiyaning mintaqadagi ta'sirini mustahkamlashga qaratilgan strategik qadamlar bo'ldi. Shu bilan birga, Xitoy Xalq Respublikasi ham "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi orqali Markaziy Osiyoga iqtisodiy jihatdan chuqur kirib bormoqda. Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston kabi davlatlarda infratuzilma loyihalari, yo'l-transport tarmoqlari va energetika sohalaridagi hamkorlik orqali Xitoy o'zining yumshoq kuchini kengaytirib bormoqda.

Bundan tashqari, geoiqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqa davlatlarining ko'pchiligi ayni vaqtda iqtisodiy sheriklikda muvozanatni saqlashga harakat qilmoqda. Ular bir tarafdin Rossiya bilan tarixiy va iqtisodiy aloqalarni saqlagan holda, ikkinchi tarafdin AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Xitoy kabi kuchlar bilan ham aloqalarni kuchaytirmoqda. Bu "ko'p vektorli tashqi siyosat" strategiyasi Markaziy Osiyo davlatlarining suverenitetni saqlab qolishga va geosiyosiy bosimni muvozanatlashtirishga qaratilgan harakati sifatida baholanishi mumkin. Misol uchun, O'zbekiston 2000-yillarning boshlarida Rossiyaga yaqin bo'lgan bo'lsa, keyinchalik G'arb davlatlari bilan ham yaqin hamkorlikni rivojlantirishga urinib keldi. Biroq mintaqaviy xavfsizlik masalalarida hali ham Rossiyaning roli muhim bo'lib qolmoqda. Xususan, narkotrafik, diniy ekstremizm va chegara xavfsizligi masalalarida Rossiya tajribasi va resurslari hali ham zarur darajada talab etiladi.

Tahlillarda e'tibor qaratilgan yana bir muhim natija — mintaqada uchinchi kuch sifatida Xitoyning jiddiy faollashuvi. Xitoy nafaqat iqtisodiy resurslar orqali, balki siyosiy va texnologik vositalar bilan ham o'zining ta'sir doirasini kengaytirmoqda. "Raqamli Ipak Yo'li" loyihasi, sun'iy intellekt texnologiyalarining eksporti, moliyaviy investitsiyalar orqali Xitoy mintaqa hukumatlari bilan chuqurroq siyosiy va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yimoqda. Shu bilan birga, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida Xitoy va Rossiyaning parallel ta'sir maydonlari shakllanmoqda, bu esa ichki raqobatni ham yuzaga keltirgan.

Terrorizmga qarshi kurash, transmilli tahdidlar, suv va ekologik inqirozlar, iqlim o'zgarishi ham "Katta O'yin" zamonaviy bosqichining ajralmas qismi sifatida tahlil etildi. Markaziy Osiyo davlatlari nafaqat tashqi tahdidlar, balki ichki siyosiy va iqtisodiy muammolar bilan ham kurashmoqda. Aynan shu jihat, mintaqada barqarorlikni ta'minlashda tashqi kuchlarning bevosita aralashuvini kuchaytirmoqda. Shu sababli, mintaqaning o'zi "Katta O'yin"ning faqat passiv maydoni emas, balki faol sub'yektiga aylanishi zarurligi tobora muhim bo'lib bormoqda.

Tadqiqot yakunida aniqlangan eng asosiy natijalardan biri shuki, bugungi global kuchlar muvozanatida Markaziy Osiyoning strategik ahamiyati ortib bormoqda va bu ahamiyat yaqin yillarda yanada kuchayadi. "Katta O'yin" o'tmishda bo'lgani kabi faqat ikki davlat o'rtasidagi kurash emas, balki ko'p tomonlama, murakkab va ko'p qatlamli raqobatga aylangan. Bu jarayonda ishtirokchilar sonining ko'paygani, harbiy-siyosiy manfaatlarining ko'p yo'nalishli bo'lishi, mintaqaning ichki resurslariga

bo'lgan qiziqish va tashqi tahdidlarning keskinlashuvi — bularning barchasi “Katta O‘yin”ning bugungi bosqichi tarixdagisidan ham murakkabroq va xavfliroq ekanini anglatadi. Shu bois, mintaqa davlatlari o‘z ichki siyosatini mustahkamlash, regional hamkorlikni rivojlantirish va geosiyosiy vaziyatga nisbatan ongli strategik yondashuvni shakllantirish orqali “katta o‘yin”da o‘z manfaatlarini himoya qilishga intilishi kerak.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan ma’lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, “Katta O‘yin” nazariyasi nafaqat tarixiy fenomen sifatida, balki zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni tushunishda ham muhim metodologik vosita bo‘lib xizmat qiladi. XIX asrdagi klassik “Katta O‘yin” davrida ikki imperiya — Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi raqobat Markaziy Osiyoni global siyosat markaziga aylantirgan edi. Bugungi kunda esa bu raqobat yanada murakkablashgan, ko‘p tomonlama tus olgan va ko‘proq ishtirokchilarni o‘z ichiga olgan. Ayniqsa, AQSH, Xitoy, Turkiya, Eron va Yevropa Ittifoqi kabi davlatlarning mintaqaga bo‘lgan qiziqishi oshgani, energiya resurslari, transport infratuzilmasi va xavfsizlik masalalari bo‘yicha geoiqtisodiy raqobatni kuchaytirmoqda.

Zamonaviy “Katta O‘yin”da shuni alohida ta’kidlash kerakki, Markaziy Osiyo davlatlari endilikda faqat raqobat ob’ekti emas, balki mustaqil tashqi siyosat yurituvchi faol sub’ektlar sifatida shakllanmoqda. Ularning “ko‘p vektorli” siyosati, ichki barqarorlikni saqlashga qaratilgan strategiyalari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘llari, bu mintaqani global kuchlar o‘rtasidagi muvozanat markaziga aylantirgan. Shu bois, “Katta O‘yin”ning keyingi bosqichlari, asosan, mintaqa davlatlarining ichki siyosiy qarorlari va tashqi siyosatdagi muvozanatiga bog‘liq bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, “Katta O‘yin” hali yakunlangan emas — u faqat shaklini va vositalarini o‘zgartirgan xolos. Shu sababli, Markaziy Osiyo kelajagi uchun strategik fikrlash, barqarorlikni ta’minlash va milliy manfaatlarga asoslangan tashqi siyosat yuritish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaye, John W. History of the War in Afghanistan. London: W.H. Allen, 1851.
2. Fromkin, David. A Peace to End All Peace: The Fall of the Ottoman Empire and the Creation of the Modern Middle East. Holt, 1989.
3. Kaplan, Robert D. The Revenge of Geography: What the Map Tells Us About Coming Conflicts and the Battle Against Fate. Random House, 2012.
4. Brzezinski, Zbigniew. The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives. Basic Books, 1997.
5. Starr, S. Frederick. The New Great Game: China and South and Central Asia in the Era of Reform. Johns Hopkins University Press, 2004.
6. Murtazashvili, Jennifer Brick & Haider, Muhammad Shoaib. "US Military Strategy in Central Asia Post-9/11". Journal of Strategic Studies, 2015.

7. Allison, Roy. Russia, the West, and Military Intervention. Oxford University Press, 2013.
8. Clarke, Michael. The Belt and Road Initiative and the Future of the Asian Order. Routledge, 2020.
9. OSCE Reports on Central Asia Regional Security (2020–2023), www.osce.org